

TALABA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK OMILLARI.

M. A. Turobova

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti pedagogika va o'qitish metodikasi
kafedrasi o'qituvchisi. (NTM)*

Oila va jamiyat bir-biriga chambarchas bog'liq tushuncha bo'lib, jamiyatning o'zi ham oilalardan tashkil topadi. Oila esa o'z o'rnida jamiyat bag'rida vujudga keladi, rivojlanadi. Jamiyatda oilaning o'z vazifalari mavjud bo'lib uning mohiyati va vazifalari dunyodagi barcha xalqlar uchun bir xildir. Lekin uning tashkil topishi, taraqqiy etishi va oiladagi vazifalarni bajarish jarayonlari har bir xalqda alohida, o'ziga xos xususiyatga egadir. Har bir xalq yaxlit dunyoninig bir bo'lagidir, inson-insonga, xalqlar-xalqlarga o'xshamaydi, bir-birini aynan takrorlamaydi, Har bir millat va elatning o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, har bir xalqning o'z ma'naviyati, milliy qadriyatlari va boy tarixiga egadir.

Milliy qadriyatlar, har bir millatning o'ziga xos xususiyatlari, xossalari, belgilari, alomatlarini ifodalovchi falsafiy tushuncha bo'lib, o'sha millat bosib o'tgan ijtimoiy taraqqiyot. Huddi shu milliy o'ziga xoslik, millat madaniyatida, urf-odatlarida, rasm – rusumlarida, tarixiy xotirasida, tilida, dinida, yashash va fikrlash tarzida o'z ifodasini topadi. Milliy qadriyatlar milliy ma'naviy madaniyat ifodasi bo'lib, har bir millatning insoniylik xazinasiga qo'shgan munosib hissasining hosilasidir.

Ma'lumki, azaldan sharq mamlakat xalqlari ongida oilaning muqaddasligi, farzand tarbiyasida oilaning beqiyos ro'li asrlar davomida shakllanib kelgan. Oilaga nisbatan millatning urf odat va an'analarini saqlash va davom etturuvchi dargoh sifatida qaralgan. Shunga ko'ra oilani mustaxkamlashga astoydil kirishgan va o'z naslini pok saqlashga, ta'lim-tarbiya ishlariga jiddiy e'tibor qaratib kelingan.

Oiladagi ma'naviy muhit, axloq-odob masalalari katta ahamiyatga ega bo'lib, inson o'z millati an'analari va umumbashariy qadriyatlar asosidagina kamolotga erishadi. Xalqimizning axloq, andisha, sharm-hayo, halollik va pokizalik, inson qadr-qimmatini, yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi muammolar haqida bahs yuritib, insonlarning kamolotga erishish yo'lini yoritib boradi. Har bir inson bir olam bo'lgani kabi uning axloq odobi ham juda murakkab olam desak yanglishmaymiz. Chunki, shaxsning ichki va tashqi olamini o'rganish, bilish, taxlil qilish g'oyatda murakkab, bu ruhiyat bilan bog'liq holatdir. Axloqli, odobli komil

insonda odamiylikning eng yaxshi fazilatlari: mehr-muhabbat, rahm-shavqat, adolatu-diyonat, hayoyu- iffat, imon-e'tiqod kabilar mujassam bo'ladi, ayni paytda shu xislatlarning aksi-beburd, axloqsiz kimsalar fe'lida ko'rinadi. Har bir xalqning nufuzi va obro'-shuhrati kishilarning axloq-odobi, yaxshi xislat fazilatlari bilan belgilanadi.

Jahon xalqlari hayotida muhim o'rin tutuvchi oilaviy qadriyatlar hamda oiladagi ijtimoiy psixologik muhit, er-xotin munosabatlari, oilaviy nizolarning kelib chiqishi, ajrim muammolarini o'rganish jamiyat taraqqiyoti davomida keng ilmiy jamoatchilik tomonidan o'rganilishini taqozo qilmoqda. Oila va nikohning ma'naviy-psixologik asoslari, oilaviy hayotga psixologik tayyorlik shuningdek, oilaviy munosabatlarda xulq-atvorni tartibga solish haqidagi g'oyalar tizimini shakllantirish dolzarb ehtiyojdir. Shunday ekan, oilaviy munosabatlar, oiladagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy- psixologik ta'siri hamda oilaviy hayotga psixologik tayyorlikni kompleks o'rganish, ularning hali yaxshi o'rganilmagan jihatlarini ilmiy tadqiq qilish jiddiy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo miqyosidagi yetakchi universitetlar ilmiy tadqiqotlarida yoshlarning oilaviy hayotga psixologik tayyorligi tobora dolzarb bo'lib kelmoqda. Bunday tadqiqotlarni amalga oshirishda va farovon oilaga erishishda yoshlarning o'z oilaviy hayoti haqidagi tasavvurlari hal qiluvchi nikoh oldi omillaridan biridir. Shu bilan birga oila qurishda uning ustanovkasi, oilaviy hayot tarziga ijobiy munosabati, kommunikativ xususiyatlari, oilaviy hayot qadriyatlarini ongli qabul qilganligi va oilaviy hayotga tayyorlik kabi murakkab va ko'p darajali tarkibiy xususiyat faol shakllanishiga doir tadqiqotlar olib borilmoqda. Xorij psixologlarining ilmiy tadqiqotlari xulosalarida qayd etilishicha, oilaviy hayotga tayyormaslik oilaviy hayotga nisbatan qarashlarning o'zgarishi, qadriyatlar tizimining o'zgarganligi bilan hozirda oilaviy hayotga tayyorlik muhim zarurat. O'zbekistonning yoshlarini oilaviy hayotga tayyorlash, oila va nikoh haqida adekvat tasavvurlarning demografiya sohasida mavjud jiddiy vaziyat sharoitlarida shakllantirish dolzarb muammo hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan olganda talabalar hayotida oila va uni o'rganishdagi ilmiy yondashuvlar, oilaviy hayotga tayyorgarlik tushunchasi va uning ilmiy-psixologik mohiyati, talabalarda oilaviy hayotga tayyorgarlik shakllanishining faol davri ekanligini asoslashga qaratilgan ilmiy-nazariy masalalar o'z aksini topgan. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy- psixologik omillari, xususiyatlari va mexanizmlarining mazmuni batafsil yoritilgan. Shuningdek, jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda oila va oilaviy munosabatlarning funksiyalari, vazifalari, moddiy va kundalik farovonligi, oilaviy tarbiyaning

mazmun-mohiyatlariga to'xtalib o'tilgan. Ayniqsa, xorij psixologlarining oilaviy hayotga tayyorgarlik masalasini tadqiqotimizda atroflicha tahlil qilingan.

Jumladan, ehtiyoj, faoliyat, faollik, shaxsiy tayyorgarlik, emotsional-irodaviy sohalar, doirasida P.D.Sanjayev, U.K.Diyachenko, A.Y.Apuxtina, M.R.Minigaliyev, I.Y.Korniyeva, R.N.Yundin va boshqalar tomonidan olib borilgan izlanishlari tahlil qilingan. Ta'kidlash joizki, oilaviy hayotga tayyorgarlik, yoshlarning nikohga tayyorgarligi, oilaviy hayotga tayyorgarligi masalalari V.S.Leonova, I.Y.Zudilina, E.M.Mavlonov, S.A. Igumnovlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni tahlillari kiritilgan. Dissertant tomonida talabalik davrida oilaviy hayotga tayyorgarlik masalasi xorij olimlaridan A.I.Taliyeva, O.L.Shilova, V.M.Seluyko, N.I.Lashuk, M.N.Telepov, U.A.Kuznitsov, o'zbek olimlaridan F.Akramov, N.X.Lutfullayeva, A.Abdullajonovlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini atroflicha yoritib berish bilan birga o'ziga xos mualliflik pozitsiyasi ham ilgari surilgan.

O'z mohiyatiga ko'ra, oilaviy hayotga tayyorlik talabaning faol- harakatli holati, oila qurishda uning ustanovkasi, oilaviy hayot tarziga ijobiy munosabati, kommunikativ xususiyatlari, oilaviy hayot qadriyatlarini ongli qabul qilganligi va oilaviy hayotga tayyorlik kabi murakkab va ko'p darajali tarkibiy xususiyat faol shakllanishi ochib berilgan.

Talaba-yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligini quyidagi umumlashtirilgan mazmuniy komponentlarini ajratish imkonini berdi:

birinchi mazmuniy komponent – qadriyatli, uzoq muddatli hayot istiqboliga yo'nalganlikni aks ettiruvchi maqbul oilaviy hayot, yaxshi ko'rgan insoni bilan yaqinlik, o'ziga ishonch, mas'uliyat, sezgirlik, ratsionalizm, yuzaga keladigan hayot qiyinchiliklari oldida chekinmaslik qobiliyatlarini aks ettiradigan talaba shaxsining qadriyat sohasini o'z ichiga oladi;

ikkinchi mazmuniy komponent – emotsional-shaxslararo, o'z-o'zini nazorat qilish, muloqotda emotsional samaradorlik, kommunikativ refleksiyaga qodirlik, o'zaro ta'sir jarayonida nizoli vaziyatlarni hal eta oladi;

uchinchi mazmuniy komponent – kognitiv-xulqiy, o'z xatti-harakatlari, holati, istaklari, shuningdek, axloq mezonlari, shaxslararo muloqot prinsiplari, jamoadagi xulq-atvor individual xususiyatlarni o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, talaba-yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligi tarkibiy qismlari shartlidir, chunki ularning mazmun asoslari o'zaro bog'liq, ya'ni bir-birini to'ldiradi, chambarchas aloqadadir.

O'tkazilgan tadqiqotning ko'rsatishicha, talaba-yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligi universal metodika mavjud bo'lmagan psixodiagnostika uchun yetarlicha murakkab, integrativ tuzilma sanaladi. Shu bilan bog'liq ravishda,

aniqlangan mazmuniy komponentlar, baholash mezonlarini hisobga olgan holda talabalarning oilaviy hayotga tayyorligi rivojlanish darajasini empirik aniqlash uchun o'zini amaliyotda yaxshi isbotini topgan quyidagi psixodiagnostik kompleks tanlandi va qo'llanildi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Shoumarov G., Rasulova Z. Oila ensiklopediyasi. - T.: «Ilm-Ziyo Zakovat», 2016. -270-b. Lapshina YE.A. Pedagogicheskiye usloviya formirovaniya konkurentosposobnoy lichnosti uchashixsya iz nepolnix semey v vospitatelnoy sisteme shkoli. / Dissertatsiya i avtoreferat na soiskaniye uchyonoy stepeni kandidata pedagogicheskix nauk. – Ulyanovsk. 2010.
2. Шаамирова Ю.К. “Нотўлик оилаларда ўсмирларни миллий-маънавий тарбиялаш” Дисс., п.ф.н. Т.2006 й. 33-34-бет.
3. Файзиева М.Х.Оила психологияси. Қарши ”Насаф нашриёти” 2018 й.138-бет.
4. Fayziyeva, N. (2024). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(2), 149-155. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9805>
5. Эшмуродов, О. Э. (2021). Оиланинг маънавий-ахлоқий хусусиятлари ва оила мустаҳкамлигини таъминлаш имкониятлари. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 1082-1085.
6. Elamanovich, O. E. (2022). OILAVIY MUNOSABATLARDAGI NIZOLARNING KELIB CHIQUISH SABABLARI. *Archive of Conferences*, 1-7.
7. Eshmurodov, O. E. (2022). SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF MAINTAINING FAMILY-MARRIAGE RELATIONS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 803-807.
8. Eshmurodov, O. (2024). MAKTABLARDA PSIXOLOGIK XIZMATNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 152-155.
9. Eshmurodov, O. (2024). ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ ВА ДОЛЗАРБЛИГИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 148-151.
10. Eshmurodov, O., & Fazliddinova, U. (2024). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI O'QISHGA O'RGATISHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'RNI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 169-173.
11. Эшмуродов, О. (2023). Talabalar oila haqidagi tasavvurlarining oila mustahkamligiga ta'siri. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 71-74.